

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI



“O`ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI

“MA`NAVIYAT ASOSLARI. DINSHUNOSLIK” FANIDAN

REFERAT

Bajardi:

**33-MT-14 guruh talabasi
Mamatvaliyev Z**

Qabul qildi:

Muxiddinova X

Namangan-2015

Mavzu: O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlar ma'naviyatida axloqiy qadriyatlar.

Reja:

1. O'zbekistonda mustaqillik yillarida ma'naviy yangilanish va qadriyatlar tizimi.
2. O'zbekistonda ma'naviy yangilanishlar sharoitida axloqiy qadriyatlarning o'rnini

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, shaxs erkinligi va haq-huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etishga asoslangan dunyo-qarashning qaror topishi asosida yuz bermoqda. Binobarin, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "har qanday islohotning eng muhim samarasi avvalo xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz bera-yotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Biz amalga oshirilayotgan islohotlarimizda ana shunday natijalarga erishish uchun barcha o'zgarish va yangiliklarning markaziga inson va uning manfaatlarini qo'ydik. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak"¹.

Shuning uchun mamlakatimizda ijtimoiy yangilanishlar sharoitida ma'naviyatga yangicha qadriyatli, ijodiy yondashuv mezonlari qaror topdiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini taqozo qiladi.

Oqibatda barpo etilayotgan huquqiy-demokratik davlat, ochiq va erkin fuqarolik jamiyatining axloqiy qadriyatlari mohiyatini o'rganish va yuksaltirishga ehtiyoj ortib bormoqda, insoniylik ulug' qadriyat ekanligi, tub islohotlar muvaffaqiyati xalqimiz ma'naviyatini uning axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'minlashga alohida e'tibor berilmolqda. Shu bois I. A.Karimov jamiyatimiz ma'naviy taraqqiyoti haqida so'z borganda yuksak axloqiy negizlar va

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. -B.105-106.

ma`naviy fazilatlarni qayta tiklashga va uni O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma`naviy-axloqiy barkamolligini ta`minlash masalasiga ustuvor yo`nalishlar sifatida alohida e`tibor berib keladi.

Prezidentimiz I.Karimov ta`biri bilan aytganda: “Biz uchun ma`naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma`naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo`lishi lozim¹.

Mamlakatimizdagi tub o`zgarishlar, islohotlarning mohiyati inson qadrini yuksak darajaga ko`tarishi bilan demokratik mohiyat kasb etadi, bunda milliy va umuminsoniy, axloqiy qadriyatlar uyg`unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog`lom tafakkurning shakllantirish katta ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda ma`naviy yangilanish jarayonida demokratiyani joriy etish, uning tamoyillarini qo`llashda o`ziga xos va o`ziga mos yo`l tanlab olindi. Birinchidan, umume`tirof etilgan demokratik tamoyillarga amal qilish; ikkinchidan, O'zbekistonning milliy xususiyatlari, axloqiy qadriyatlariga mos demokratik tamoyillarni joriy etish; uchinchidan, aholini demokratiyaga o`rgatish, tayyorlash; to`rtinchidan, iqtisodiy asosni yaratish asosiy vazifalar qilib belgilandi.

Ma`lumki, qadriyat – voqelikning muayyan hodisalariga tegishli umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma`naviy ahamiyatli jihatlarni ifodalovchi falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushunchadir. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo`lgan erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma`rifat, madaniyat, moddiy va ma`naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go`zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an`ana, urf-odat, udum kabi barcha narsa, hodisa va voqealar ana shunday fazilatga egadir².

Jamiyat hayotining muayyan sohasi bilan bog`liqligi va amal qilish xususiyatiga ko`ra qadriyatlar axloqiy, siyosiy-demokratik, diniy, ilmiy, oilaviy, huquqiy, badiiy kabilarga bo`linadi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.– T.: O'zbekiston, 1997. –B.180.

² Falsafa : qomusiy lug'at (tuzuvchi va mas`ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. –B. 476.

Demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati taraqqiyotining muhim omilini axloqiy qadriyatlarning mohiyatini bilish, inson va uning hayoti oliy qadriyat ekanligini eʼtirof etish, shaxs erkinligi, vijdon erkinligi, soʻz va matbuot erkinligini qaror toptirish tashkil qiladi. Axloqiy qadriyatlarni keng targʻib etish va rivojlantirish mamlakatimizda farovon turmush, yuksak madaniyat va oʻziga xos tsivilizatsiya asoslarini yaratishning garovi sanaladi. Binobarin, “Demokratik qadriyatlarning tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot tsivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi¹.

Inson uchun obʼektiv reallikning foydaliligi, ahamiyatliligi qadriyat uchun muhimdir. Kishilik taraqqiyoti tarixida yuzaga kelgan muhim maʼnaviy qadriyatlardan biri – bu axloqiy qadriyatlar hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi oʻrni va rolini tadqiq etish amaliy ahamiyatga ega boʻlib, avvalo, jamiyatni insonparvarlashtirish, xalqlar, millatlar, davlatlar oʻrtasidagi ziddiyatlarni oqilona bartaraf etish, jahon ahlini tashvishlantirayotgan mintaqaviy mojarolar, urush va tinchlik, ekologik tanglik, yuqumli kasalliklar, qashshoqlik va h.k. muammolarni hal etish, shuningdek, xozirda yadro poligonlari oʻrnini mafkuraviy poligonlar egallayotgan bir vaqtda, xalqimizning milliy gʻoyaviy va mafkuraviy immunitetini oshirishga xizmat qiladi.

Insoniyat oʻz taraqqiyotining bugungi bosqichida mutlaqo yangi – ilgari kuzatilmagan, shu bilan birga, chuqur va keng qamrovli oʻzgarishlar davrini – davlatlar va xalqlarning ochiqlik asosidagi bir-biriga yaqinlashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Ayrim mutaxassislar bu jarayonni informatsion jamiyat shakllanishi sifatida talqin qilsalar, neomodernizm tarafdorlari (soʻl yoʻnalishda fikrlovchi olimlar) esa “imperializm bosqichiga chiqqan kapitalizm” deya baholamoqdalar. Lekin aksariyat olimlar eʼtiborini tartayotgan, ayniqsa, jiddiy tortishuv va tahlillarga sabab boʻlayotgan boshqa bir yondshuv borki, unga koʻra, dunyo taraqqiyotining ana shu bosqichi – oʻz qamrovini tobora kengaytirayotgan

¹ Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlika tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: Oʻzbekiston, 1997. –B.147-148.

hamda hayotning barcha yo'nalishlarini o'z domiga chuqurroq tortayotgan globallashuv jarayondir.

Mustaqil taraqqiyotimizning birinchi davrida, eski, o'z umrini yashab bo'lgan tuzumdan mutlaqo yangi, xalqimiz orzu-umidlari va manfaatlariga mos keluvchi davlatchilik asoslarini barpo etish borasida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa, uning ikkinchi – qadriyatlar va ma'naviy yangilanishlar, mamlakatni modernizatsiya qilish davrida yurtimizda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar pirovard-natijada yurtimizni o'zgacha tus olayotgan, globallashayotgan dunyoda o'z o'rniga ega bo'lgan kuchli davlatlar sirasiga olib chiqishga qaratilganligini anglash qiyin emas.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlashicha “Insonparvar demokratik jamiyatning oliy qadriyati shaxs erkinligi hisoblanadi va unga bo'lgan munosabat, uning hurlik va erkinligining real amalga oshirilishi demokratik qadriyatlar mohiyatini belgilaydi”.

Adolatli, demokratik huquqiy jamiyat o'z haq-huquqini anglagan, yuksak ma'naviyatli, barkamol insonlar jamiyatidir. Agar jamiyat shunday odamlardan tashkil topmasa, unda demokratiya haqidagi gaplar shunchaki orzu bo'lib qolaveradi. Yuksak ma'naviyatning birinchi sharti esa, bu erkinlikdir, jamiyat a'zolarining o'zini ozod va erkin his etishidir.

Axloqiy qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham, etnik-madaniy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini ta'kidlash joiz. Qolaversa, “Tadbirkorlik, erkin savdo, ijtimoiy adolat, o'zaro murosayu madora va boshqalarning fikrini hurmat qilish degan tushunchalar bizning zaminimizda tarixiy ildizlarga ega”¹. Shuningdek, 2011 yil - Kichik biznes va tadbirkorlik yili deb e'lon qilinishi ham fikrimiz davomiyligidir².

Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlari va

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. –B.147-148.

² Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davomi – taraqqiyotimizning muhim omilidir. “Ishonch” gazetasi, 2010 yil 8 dekabr.

imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada kuch baxsh etdi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni mahalda o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarini tez o'rganib olish kabi noyob fazilatlari to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga imkon berdi. Ana shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va saxovat an'analari yanada rivojlandi.

“Bunday aloqalarning kengayishi haqiqiy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni munosib baholash imkonini berdi. Hozirning o'zidayoq aholining keng qatlamlari orsida 80-yillarning oxirlarida mamlakatimiz tomoshabinlari va kitobxonlariga yog'dirilgan g'arbning sun'iy san'atidan, “keng iste'mol”dagi madaniyatidan norozilik sezilib turibdi. Bunday mahsulotning ilgari “man etilgan ne'mat”ga xos “lazzati”, jozibadarligi qolmagan. Hozirgi kunda xorijning madaniy qadriyatlaridan foydalanishga ancha jiddiy va tanlab yondashish ehtiyoji kuchayib bormoqda”¹, - deb yozadi I.Karimov.

Dunyoning yurtimizdagi axloqiy qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va, aksincha, bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda”².

Mustaqillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytirdi. Tarix va hozirgi zamon voqeliklariga murojaat qilish bizning ijtimoiy tafakkurimizdan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliplarini yengib o'tishni, mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarni baholay olish qobiliyatini talab etdi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlika tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. –B.149.

² O'sha yerda. 150-bet.

O'zbekiston xalqi ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, shaxsning, huquq va erkinliklarini ta'minlash, erkin bozor iqtisodiyotini barpo etishni o'zi uchun eng ustuvor qadriyatlar sifatida tanladi.

1992 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat hayotida ulkan siyosiy voqea, yangi O'zbekistonni qaror toptirish jarayonidagi muhim qadam bo'ldi. O'zining Asosiy Qonunida davlat tuzumi printsiplarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy negizlari va strategik yo'nalishlarini mustahkamlab qo'ymagan davlat chinakam suveren davlat bo'la olmaydi. Konstitutsiya suveren davlatimizning qonunchilik-huquqiy negizini shakllantirishning asosiy poydevori, mustaqil davlatchiligimizning tamal toshi bo'ldi.

Umuminsoniy qadriyatlar, tamoyillar va me'yorlarni, butun dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlarni o'rganmay va ulardan foydalanmay turib, fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratish mumkin emas.

Insoniyat ming yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarni to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim shartidir.

Binobarin, biz o'z istagimizdagi qadriyatga qanday mazmun baxsh etmaylik, agar u hayotimizning har bir soniyasiga sngib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta'riflar yo mazmunsiz baqir-chaqir, yoki hech narsani anglatmaydigan so'z o'yini bo'lib qolaveradi. Bunday tashqari, bizningcha, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan tayyor bo'lmagan zaminda qadriyatning barcha tamoyillariga "yashil yo'l" ochib berilsa, haqiqiy qadriyatlarni bo'g'ib qo'yish xavfi yuzaga kelishi ham mumkin.

Prezident I.A.Karimovning qator asarlarida, xususan, "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" (T., 1992), "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" (T.,1995) asarlarida yangicha qadriyatlar asoslarini anglash mumkin. Respublikamiz rahbariyati mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy tafakkuri taraqqiyotida birinchi bo'lib ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining asosidir, degan g'oyani ilgari sura

boshladi. I.A.Karimov asarlarida milliy qadriyatlarimizni tiklash, ma`naviy qadriyatlarni rivojlantirish, demokratik qadriyatlarni keng targ'ib etish va inson ongiga singdirish masalalari atroflicha bayon etildi. I.A.Karimovning ta`kidlashicha, ma`naviyat jamiyat taraqqiyotining asosi, barkamol inson shaxsini kamol toptirishning muhim omilidir. Xalqimiz ma`naviyatini yuksaltirish, ajdodlarimiz ilmiy merosini keng targ'ib etish orqaligina taraqqiyotimizga xalaqit berayotgan illat va nuqsonlarni bartaraf etishimiz mumkin. Ta`lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz ma`naviyatini yuksaltirishga, yanada takomillashtirishga qaratilgandir¹.

Axloqiy qadriyatlar kishilik jamiyatini yemirilish, parokandalik va inqirozdan saqlaydigan, unga kuch-qudrat bag'ishlaydigan qadriyat turidir. Jamiyat uzluksiz o'zgarishni kechirib turgan, rivojlanish va inqirozlar bir-biri bilan almashinib turgani singari qadriyatlar tizimi ham bir-biri bilan almashinib turadi. Ijtimoiy-siyosiy tizimlarga qadriyatlarning tegishli tizimlari muvofiq keladi. Bu muhim aksologik qonuniyat sifatida insoniyat tarixining barcha davrlarida amal qilib keladi.

Milliy mustaqillik yillarida Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosii islohotlar xalqimiz ma`naviyatini yuksaltirishni, jahon andozalari talablariga va raqobatga bardosh bera oladigan yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashni, boshqacha qilib aytganda, axloqiy qadriyatlarni ustivor qadriyatlar sifatida rivojlantirishni, ma`rifatparvarlik g'oyalarini qayta tiklashni taqozo eta boshladi.

"Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e`lon qilganmiz, - deb yozadi I.A.Karimov. - Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo`ladigan bilimli, ma`rifatli kishilarni tushunamiz.

Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo`lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko`radi. O`z fikr o`yi, xulosasini mantiq asosida qo`rgan kishi yetuk odam bo`ladi.

¹ Каримов И. Баркамол авлод – Ўзбекистон таракқиётининг пойдевори. – Т.: Ўзбекистон, 1997. –Б.46.

... Jamiyat taraqqiyotining asosi uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma`rifatdir. ... Ma`rifatparvarlik biz uchun bugun ham o`z ahamiyatini yo`qotgani yo`q, yo`qotmaydi ham".

Shunday qilib, axloqiy qadriyatlar tizimi jamiyat va shaxs kamoloti uchun asos bo`lib xizmat qiladigan axloqiy, diniy, mifologik, ilmiy, falsafiy, badiiy, siyosiy, mafkuraviy ong, g`oya va munosabatlar majmuasini ifoda etadi. Biz yuqorida ta`kidlanganidek, axloqiy qadriyatlar insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida tayanch qadriyat hisoblangan. Axloqiy normalar, bu insoniyatning jamiyat bo`lib uyushishi, oilaning paydo bo`lishiga imkon bergan.

Ma`naviy barkamol inson o`zi bilgan ilm sirlarini boshqalarga o`rgatsa, ilmni jamiyat manfaatlari uchun sarflasa, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirsagina, uning imoni butun va vijdoni pokiza bo`ladi.

Axloqiy qadriyatlar insoniyat ma`naviyatining tayanch qadriyatlari sifatida ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Biroq ularning har biri konkret tarixiy sharoitga va xalqning ma`naviy salohiyatiga bog`liq ravishda ustivor qadriyat sifatida e`zozlanadi.

Axloqiy qadriyatlar har bir shaxs va jamiyat borlig`ining tub asosi, uning mohiyatli kuchi sifatida hamisha e`zozlanadi. Axloqiy qadriyatlarning qadrsizlanishi, kuchsizlanishi og`ir va uqubatli jamiyatni yemirilishiga olib keladi.

Milliy mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xalqimiz ma`naviyatining muhim tarkibiy qismi bo`lgan axloqiy qadriyatimizning qaytadan tiklanishi xalqimizning o`zligini anglashi, ulug` ajdodlarimiz ishini davom ettirish yo`lidagi muhim qadam bo`ldi.

Demokratik, ilmiy va axloqiy qadriyatlar bir-birisiz rivojlana olmaydi: kishilar haqiqiy odamiylikka, yaratuvchan qobiliyatga, mehr-shafqatli, insofdiyonatli, halol bo`lishga erishadilar. Shuningdek, fan kishilardan axloqiy poklikni, mehnatsevarlik, fidoyilik, halollikni talab etadi. Binobarin, olimlik va odamiylik bir-birini taqozo etadigan tushunchalardir. Ilmiy asosda fikrlash

tarzi kishilar hayot faoliyatining yetakchi tendentsiyasiga aylanishi bilan odamlar o'rtasidagi munosabatlarda tub sifatiiy o'zgarishlar ro'y beradi: so'zning qadri ortadi; so'z bilan ish, til bilan dil o'rtasida o'zaro mutanosiblik vujudga keladi.

Axloqiiy qadriyatlar yangi tipdagi shaxsni shakllantirishga, ijtimoiy-siyosiiy, huquqiiy va axloqiiy munosabatlarning sifat jihatdan yangi tipini yaratishga, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishga xizmat qiladigan umuminsoniiy qadriyatlarning yuksak shaklidir. Jamiyatning ma'naviiy yangilanishi jarayonida axloqiiy qadriyatlar insoniiyat intellektual salohiiyatini ro'yobga chiqarish va ayni vaqtda, uni yanada rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson o'z aqli va tafakkuri tufayli tabiiy zaruriyatdan (tabiatga qaramlikdan) ozodlik, erkinlik sari qadam tashladi. Insoniiyat tsivilizatsiiyasining ilk bosqichlaridayoq ilmsizlik nodonlik, johillik va zulmat sifatida, bilimdonlik esa donolik, yorug'lik, kuch-qudrat, ezgulik sifatida anglana va qadrlana boshlagan. Ilm-ma'rifatni targ'ib etish va rivojlantirish bilan izchil va muntazam shug'ullanuvchi kishilar ziyoli, intelligent (aql egasi) sifatida ulug'langan.

Axloqiiy qadriyatlar jamiyat a'zolarining yuksak ongliligi, g'oyaviiy, siyosiiy va huquqiiy bilimdonligiga, ilmiy tafakkurning rivojlanishiga asoslanadi.

Prezident I.A.Karimovning qator asarlarida ma'naviiyatning jamiyat taraqqiiyotidagi ahamiiyati, o'rni va roli atroflicha tavsiflandi. Bu esa axloqiiy qadriyatlarning eng yuksak mavqega ega ekanligini ta'kidlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmati, erkinligi, manfaatlari – hozirgi jamiyatimizda adolat mezonii bo'lib hisoblanadi. Adolatga intilish xalqimiz ruhiy dunyosiga xos eng muhim hususiiyatdir. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi lozim.

Axloqiiy qadriyatlarning qaror topishi va rivojlanishi ilmiy qadriyatlarning har tomonlama rivojlanishi bilan uzviiy bog'liqdir.

Xullas, milliiy mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq axloqiiy qadriyatlar hayotga tatbiq qilinayotgan, xalqimiz ma'naviiy qadriyatlarimiz

sarchashmalaridan to'la bahramand etilayotgan, bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyili sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotganligi, ilmiy, siyosiy, huquqiy tafakkurini yanada rivojlantirish eng dolzarb vazifaga aylanib borayotganligi hamda ilmiy qadriyatlarni ma'naviy qadriyatlar tizimida tayanch qadriyat sifatida rivojlantirish ob'ektiv-tabiiy jarayon, muhim sotsiologik qonuniyat ekanligi ko'rsatildi.

X U L O S A

Milliy mustaqillik yillarida Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan milliy qadriyatlarimizni tiklash, tariximizni chuqurroq o'rganish, undan saboq olishga alohida e'tibor berilishi bejiz emas edi. Chunki mustaqillikning qadr-qimmatini teran his etish uchun, avvalo, tarixni bilmoq, xalqimiz boshiga tushgan sinovlarni, mustamlakachilik asoratlarni, xo'rliklarini yurakdan his etmoq, ozodlik uchun kurash yo'lidagi ulug' ajdodlarimiz jasoratidan voqif bo'lmoq zarur. Zero, "Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan".

Oldimizga qo'ygan oliyjanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l ko'ymaslik begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalani, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlarning ma'naviy tizimdagi o'rnini tahlil qilinganda quyidagi natijalarni berdi:

- O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-mafkuraviy xayotimizda xam ulkan o'zgarishlar sabab bo'ldi;
- O'zbekistonda ma'naviy yangilanishlar sharoitida axloqiy qadriyatlarning o'rnini tadqiq etildi;

- Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ma`naviyat, shaxs, inson, qadriyat kabi tushunchalarni o'zaro bog'liqligi ma`naviy jihatdan to'la o'rganildi;
- Axloqning ma`naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik xususiyati ochib berildi;
- Shaxs va millat ma`naviyatining takomili, asosiy qadriyatlari, shakllanish yo'llari xususidagi milliy ma`naviy merosimiz an`analariga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar ishlab chiqildi;
- Yuksak ma`naviy madaniyat, yuksak axloqiy qadriyat sifatlarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, ijtimoiy va ma`naviy jihatdan tahlil qilindi.

Turli madaniyatlarning va qadriyaviy tizimlarning o'zaro ta`siri bir-biriga kirib borishi va ularning yangilanishga bo'lgan tamoyili butun tarixiy taraqqiyot davomida mavjud bo'lganiga qaramay, butun tarix davomida unga qarama-qarshi bo'lgan tamoyil-an`anaviy ukkladni, madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlashga bo'lgan intilish ham yashab keldi.

Xullas, mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyo jamoatchiligining o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga xos va o'zimizga mos taraqqiyot yo'li-kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangilanishlar yurtdoshlarimiz qalbi, ongi va shuuriga ulkan ta`sir ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., O'zbekiston, 2014.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston, 1992.
3. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li - T.: O'zbekiston, 1993.
4. I.A.Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston. 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.3-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
7. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. T.: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. -T.: O'zbekiston. 1997.
9. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent.: Ma`naviyat, 2008.
10. Xayrullaev M.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., O'zbekiston, 1995. 340 b.
11. Shayxova X. Inson va uning ma`naviy dunyosi. – T.: O'zbekiston, 1993.
12. Yusupov E. Inson kamolotining ma`naviy asoslari. T., Universitet, 1998.